

## **GLOBAL TA'LIM SHAROITIDA OLIY TA'LIMDA O'ZBEK ADABIYOTINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH MODELI**

**Nomozova o'g'iloy Akmaljon qizi,**  
*The University of Business and Science*  
*Toshkent filiali stajyor o'qituvchisi*  
*Email: [ogiloy.nomozova@mail.ru](mailto:ogiloy.nomozova@mail.ru)*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada global ta'lim sharoitida o'zbek adabiyotini o'qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari keng yoritiladi. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi, global kompetensiyalar bilan o'zaro bog'liqligi hamda uni shakllantirishning innovatsion modeli taklif etiladi.*

***Kalit so'zlar:** global ta'lim, kommunikativ kompetensiya, adabiyot o'qitish metodikasi, integrativ model, raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv.*

***Аннотация.** В данной статье всесторонне освещаются теоретико-методологические основы развития коммуникативной компетенции в процессе преподавания узбекской литературы в условиях глобального образования.*

***Ключевые слова:** глобальное образование, коммуникативная компетенция, методика преподавания литературы, интегративная модель, цифровая педагогика, компетентностный подход.*

***Abstract.** This article comprehensively examines the theoretical and methodological foundations for developing communicative competence in the process of teaching Uzbek literature in the context of global education.*

***Keywords:** global education, communicative competence, literature teaching methodology, integrative model, digital pedagogy, competency-based approach.*

**Kirish.** Globallashuv jarayoni ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishni ustuvor vazifaga aylantirmoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar nafaqat nazariy bilimga ega bo'lishi, balki uni tahlil qilish hamda turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etilmoqda. Hozirda ta'lim faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsni global jamiyatda samarali faoliyat yuritishga tayyorlashni ham o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchilarda kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek adabiyotini o'qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbek adabiyotiga aloqador fanlar (zamonaviy o'zbek adabiyoti, o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyotshunoslik nazariyasi)ning mazmuni talabalarning estetik tafakkurini, nutq madaniyatini va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, o'zbek adabiyoti darslarida badiiy matnlar orqali

shaxsning ma'naviy, estetik va kommunikativ rivoji ta'minlanadi. Biroq an'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha talabning faolligini cheklab, uning kommunikativ salohiyatini to'liq namoyon etishga imkon bermaydi. Bu esa global ta'lim talablariga mos keluvchi yangi metodik model ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi global ta'lim sharoitida oliy ta'lim muassasalarida o'zbek adabiyotini o'qitish jarayonida talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modelini ilmiy asoslash va uning metodik jihatlarini ochib berishdan iborat.

**Asosiy qism.** Global ta'lim tushunchasi zamonaviy pedagogikada shaxsni global muammolarni anglay oladigan, turli madaniyatlar bilan muloqotga kirisha oladigan va tanqidiy fikrlay oladigan subyekt sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa o'z navbatida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni taqozo etadi. “Kommunikativ kompetensiya” atamasi ilmiy adabiyotga D.Xayms tomonidan 1972-yilda kiritilgan [3]. Kompetensiya tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi O'zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha keltirilgan:

“Kompetensiya (lot. competere – erishyapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba” [4].

O'zbek tilining izohli lug'atida esa quyidagicha ifodalanagan: “Kompetensiya [lot. competere – layoqatli, munosib bo'lmoq] 1 Muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2 Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi” [5].

Umumiy olganda, kompetensiya – bu layoqat, ya'ni shaxsning muayyan vaziyatlarda bilim, ko'nikma va tajribasini mos ravishda qo'llab, samarali faoliyat yurita olish layoqatidir.

Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning til vositalaridan samarali foydalanish, muloqot jarayonida fikrini aniq ifodalash, suhbatdoshni tushunish va ijtimoiy kommunikatsiyada faol ishtirok etish qobiliyatidir. Oliy ta'lim tizimida bu kompetensiya quyidagi komponentlarni qamrab oladi:

- lingvistik kompetensiya;
- diskursiv kompetensiya;
- ijtimoiy-madaniy kompetensiya;
- strategik kompetensiya.

Mazkur komponentlar o'zbek adabiyotini o'qitish jarayonida integrativ tarzda rivojlantirilishi lozim. Global ta'lim sharoitida kommunikativ kompetensiya faqat

nutqiy ko‘nikmalar bilan cheklanmay, balki ijtimoiy va madaniy omillarni ham o‘z ichiga oladi.

G.S.Trofimova, A.A.Bodalev, L.A.Petrovskaya kabi olimlarning tadqiqotlari kommunikativ kompetentlikni insonparvar shaxsiy fazilatlariga asoslangan va suhbatdoshning kommunikativ imkoniyatlarini hisobga olgan holda boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilishning ajralmas qobiliyati sifatida belgilaydi [1; 186-b.].

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, “kommunikativ potensial – bu inson qobiliyatlarining shunday muhim tavsifiki, u muloqot jarayonining sifatini belgilaydi. U kommunikativ kompetensiya bilan bir qatorda yana ikki asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: shaxsning kommunikativ sifatleri, ya’ni muloqotga bo‘lgan ehtiyojning shakllanganlik darajasi, muloqot usullariga nisbatan munosabati; kommunikativ kompetensiyalar, ya’ni muloqot jarayonida tashabbus ko‘rsata olish, faol ishtirok etish, suhbatdoshlarning holatiga emotsional jihatdan munosabat bildirish, o‘ziga xos individual muloqot dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish, shuningdek muloqot jarayonida o‘z-o‘zini va boshqalarni rag‘batlantira olish qobiliyatidir. Shu nuqtayi nazardan, shaxsning kommunikativ madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. U kommunikativ potensialning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi, chunki kommunikativ kompetensiya o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki izchil rivojlantiriladi. Ushbu rivojlanishning poydevorini esa insonning bevosita muloqot tajribasi tashkil etadi” [2]. Oliy ta’limda talabalarda muloqot tajribasini yoxud kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda, ayniqsa, o‘zbek adabiyoti fani muhim ahamiyatga ega. Global ta’lim sharoitida adabiyot o‘qitish quyidagi vazifalarni bajaradi:

- talabalarda madaniyatlararo tafakkurni shakllantirish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish;
- kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish.

1-rasm. O‘zbek adabiyoti darslarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning integrativ modeli



Badiiy matnlar orqali talabalar turli ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qiladi, bu esa ularning kommunikativ tajribasini boyitadi.

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyoti darslarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning quyidagi integrativ modeli taklif etiladi.

Mazkur model o‘zbek adabiyoti darslarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, u o‘zaro uzviy bog‘langan beshta asosiy komponent hamda bosqichma-bosqich amalga oshirish mexanizmlaridan tashkil topgan integrativ tizimni ifodalaydi.

1. Mazmuniy komponent – modelning asosiy poydevorini tashkil etadi. Unda o‘quv materialini sifatida badiiy asarlarning g‘oyaviy-badiiy mazmuni yetakchi o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, mazkur komponent doirasida milliy va global qadriyatlar uyg‘unligi ta‘minlanadi. Bu esa talabalarni nafaqat milliy adabiy meros bilan tanishtirish, balki ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

2. Faoliyat komponenti – talabalarni ta‘lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu bosqichda interfaol metodlardan bahs-munozara, rolli o‘yinlar, keys-stadi kabi usullardan foydalanish orqali interaktiv muloqot muhiti yaratiladi. Shuningdek, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish talabalarning mustaqil fikrlashini, dalillash va o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. Raqamli komponent – zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilishni nazarda tutadi. Jumladan, onlayn platformalar orqali talabalar o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Multimedia vositalari esa (video, taqdimot) o‘quv materialini vizual va interaktiv shaklda yetkazishga xizmat qiladi.

4. Refleksiv komponent – talabalar tomonidan o‘z bilim va ko‘nikmalarini tahlil qilish hamda baholash jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda talaba o‘z fikriga tanqidiy yondashadi, yozma tahliliy ishlanmalar orqali o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlaydi. Natijada o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmi shakllanadi.

5. Natijaviy komponent – modelning yakuniy natijalarini ifodalaydi. Unda talabalarda kommunikativ kompetensiya shakllanishi, ya‘ni erkin fikr bildirish, samarali muloqotga kirishish va nutqiy faoliyatni rivojlantirish kuzatiladi.

Modelni amaliyotga joriy etish quyidagi ketma-ket bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1-bosqich: Diagnostika bosqichida talabalarning boshlang‘ich kommunikativ darajasi aniqlanadi. Ularning nutqiy faoliyati, fikr bildirish qobiliyati va muloqotdagi faolligi tahlil qilinadi.

2-bosqich: Faollashtirish bosqichida interfaol metodlar orqali talabalar o‘quv jarayoniga faol jalb etiladi. Muloqot muhiti yaratiladi va talabalar o‘z fikrini erkin ifodalashga rag‘batlantiriladi.

3-bosqich: Integratsiya bosqichida raqamli texnologiyalar bilan badiiy matnlar uyg'unlashtiriladi. Talabalar adabiy asarlarni zamonaviy platformalarda muhokama qiladi, bu esa ularning kommunikativ faolligini oshiradi.

4-bosqich: Refleksiya – yakuniy bosqichda talabalar o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini baholaydi. Refleksiya orqali o'z-o'zini tahlil qilish va rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Modelning amaliy qo'llanishiga misol sifatida virtual muhokama usulini keltirish mumkin. Bunda talabalar muayyan badiiy asar yuzasidan onlayn platformalarda fikr almashadi. Ushbu jarayon ularning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish bilan birga muloqot madaniyatini ham shakllantiradi.

Mazkur model o'zbek adabiyoti darslarini an'anaviy yondashuvdan interfaol va kommunikativ yo'nalishga o'tkazishga xizmat qiladi. U orqali talabalar faqat bilim egallabgina qolmay, balki uni muloqot jarayonida samarali qo'llash ko'nikmasini ham rivojlantiradi.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, global ta'lim sharoitida o'zbek adabiyotini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish integrativ yondashuvni talab etadi. Taklif etilgan model ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarni global ta'lim sharoitiga moslashtirish hamda ularning muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois adabiyot ta'limida innovatsion va interfaol metodlardan keng foydalanish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Axmedov A.Y. Pedagogik ta'limda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi // Farg'ona metodika maktabi. . 2025. – №3. – B. 186.
2. Natalya L., Yury D., Natalia D. Communicative Competence Management Approaches in Higher Education // Procedia Social and Behavioral Science. 214 (2015) 565 – 570.
3. Olloqova O'.M. Kommunikativ kompetensiya - o'quvchining muloqot madaniyatini rivojlantirish omili // Education and innovative research. 2023. – №8. – 182.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. К ҳарфи.– Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти.  
<https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston-milliy-ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20K%20harfi.pdf>
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. К ҳарфи.– Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти.  
<https://n.ziyouz.com/books/uzbek-tilining-izohli-lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20K.pdf>